



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 4 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	ФИНАНСОВАЯ ОТЧЕТНОСТЬ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРОБЕЛОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ <i>Мусаев Азиз Анварович</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	6
3.	RIVOJLANGAN BOZORLAR VA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA TASHKILOTINING TO'LOV QOBILİYATINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Xalikov Umid Raxmatullayevich</i>	9
4.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTORLARNI JALB ETISHDA FOND BOZORIDAGI AKSIYALARINI NARXI TAHLILI <i>Ibragimov G'anijon G'ayratovich</i>	12
5.	MONETIZING SOCIAL MEDIA: OLS ESTIMATES OF CONTENT INTENSITY, ENGAGEMENT, AND ADVERTISING ON SALES <i>Majidov Abdulaziz Abdurahimovich</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI YANADA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI <i>Mavrulova Nilufar Abduxalilovna</i>	20

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI YANADA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Mavrulova Nilufar Abduxalilovna

i.f.d., dots. TDIU

e-mail: mavrulovanilufar7@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sug'urta xizmatlari bozorida ijobiy dinamikani ta'minlash sug'urta tizimining raqamli platformalarga transformatsiyalashuvi, mediamaeting strategiyasini qo'llash orqali potensial mijozlar auditoriyasini kengaytirish, sug'urta faoliyatini tashkil etish sifatini yaxshilash va sohani rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini joriy qilishni taqozo etishiga oid masalalar bayon qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishga oid yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta sohasi, sug'urta xizmatlari, moliyaviy mustahkamlik, sug'urta mukofotlari, qayta sug'urta, tant'm to'lovlari, elektron sug'urta, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, kibernug'urta, yashil sug'urta.

Abstract: The article examines issues related to ensuring positive dynamics in the insurance services market, requiring the transformation of the insurance system to digital platforms, expansion of the audience of potential clients through the use of media marketing strategies, improving the quality of the organization of insurance activities, as well as the introduction of new opportunities for the development of the industry. Proposals for the further development of the insurance services market in Uzbekistan have also been developed.

Keywords: insurance sector, insurance services, financial independence, insurance premiums, reinsurance, bonus, electronic insurance, digitalization, investment activities, artificial intelligence, cyber insurance, eco insurance.

Абстрактный: В статье рассмотрены вопросы, связанные с обеспечением положительной динамики на рынке страховых услуг, требующие трансформации страховой системы на цифровые платформы, расширения аудитории потенциальных клиентов за счет использования стратегий медиамаркетинга, повышения качества организации страховой деятельности, а также внедрения новых возможностей для развития отрасли. Также разработаны направления по дальнейшему развитию рынка страховых услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: сфера страхования, страховые услуги, финансовая независимость, страховые премии, перестрахование, танъема, электронное страхование, цифровизация, инвестиционная деятельность, искусственный интеллект, киберстрахование, эко страхование.

Introduction (Kirish/Vvedenie).

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, sug'urta faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi rolini oshirish borasida strategik islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri sifatida sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish" bo'yicha ustuvor vazifa[1] belgilanganligi iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sug'urta mexanizmlari yordamida mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, sug'urta sohasini raqamlashtirishning yuqori bosqichlarini egallash, milliy sug'urta kompaniyalarining sug'urta maydonini kengaytirgan holda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini ta'minlash va ularning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish, aholi va biznes vakillari uchun inklyuziv mahsulotlar assortimentini yaratish va ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash, sog'lom raqobat tamoyillariga zid keluvchi dumping muammosini hal etish, an'anaviy sug'urtaga muqobil bo'lgan takafful (islom) sug'urtasining milliy sug'urta bozoridagi ahamiyatini oshirish, sohani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, shuningdek, sohaga oid qonunchilik asoslarini takomillashtirish yuzasidan izlanishlar olib borishni talab etadi.

Sug'urta xizmatlaridan foydalanish indeksini oshirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish, sug'urta sohasi moliyaviy natijalarining mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini baholash, umumiy sug'urtaning ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan turlarini joriy qilish,

sug'urtalanuvchilar manfaatlariga muvofiq holda faoliyat yuritishning yangi va samarali ekotizimini yaratish kabi muhim masalalarni kompleks va tizimli tarzda o'rganish sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review).

Jahonda sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari, uning nazariy-amaliy jihatlarini xorijlik olimlar Kudiнов M.B.ning «Тенденции рынка страховых услуг» nomli, Касабиев A.C.ning «Страховой рынок как элемент системы страхования» nomli ilmiy maqolalarida tadqiq qilingan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Shennaev X.M.ning "O'zbekistonda Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish masalalari", Azimov R.S.ning "Совершенствование методологии страхования рисков в условиях модернизации экономики" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarida aynan O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish hamda ko'lamini kengaytirish yuzasidan ustuvor yo'nalishlar ilgari surilgan.

Tadqiqot usullari (Методы исследования /Methodology).

Tadqiqotni bajarish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты /Analysis and results).

Sug'urta aholi va turli mulkchilik sub'ektlari bilan ro'y beradigan kutilmagan noxush holatlarning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishning eng samarali vositasi hisoblanib, davlat byudjetining xarajatlar yukini kamaytirishda qatnashadi[2]. So'nggi yillarda sohani takomillashtirish,

xususan, sug'urta bozorini kengaytirish, sug'urta xizmatlarining keng qamrovini ta'minlash va sug'urtalovchilarning moliyaviy salohiyatini oshirish borasida qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan sohaga jiddiy e'tibor berilib, uni jadal rivojlantirish bo'yicha aniq vazifa va ko'rsatmalar berildi. 2024 yil 1 martda PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, unda sug'urta kompaniyalarining ustav kapitali miqdorlarini muntazam oshirib borish va bu orqali ularning faoliyat ko'lamini kengaytirish hamda moliyaviy mustahkamligini ta'minlash vazifalari belgilandi, shu jumladan, investitsiyalar hajmini ko'paytirish orqali iqtisodiyotning mablag'ga muhtoj sektorlarini moliyalashtirishni amalga oshirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi[3].

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining sug'urta himoyasi har qanday sivilizatsiyalashgan davlatning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitlarida sug'urta turlariga jamiyatda shakllangan talab va ehtiyojlarning yuqoriligi bu sohani takomillashtirish va iste'molchilarga kafolatlangan sug'urta xizmatlarini taqdim etish zarurligini ifodalaydi. Respublikada moliyaviy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish, aholining kafolatlangan xizmatlar bilan qamrab olinganlik darajasini oshirish, sug'urta xizmatlarini taqdim etuvchi sub'ektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, sug'urtalanuvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar muttasil amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, aholining turmush farovonligini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada sug'urta tizimining rolini kuchaytirishni va sug'urta vositalarini keng qo'llashni taqozo etmoqda.

Maqolada barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash maqsadida mamlakat yalpi ichki mahsulotida sug'urtaning ulushini oshirish, sug'urta turlarini ommalashtirish, sug'urta bozorining transparentligini oshirishni nazarda tutuvchi strategik yo'nalishlar taklif qilingan. Quйда mazkur yo'nalishlarni va o'rganilgan tajribani bayon qilamiz.

1. Sug'urta turlarini ommalashtirish, aholining sug'urtadan xabardorligini oshirish maqsadida referal-link tizimini yo'lga qo'yish. O'zbekiston sug'urta bozorining 2024-yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra[4], jami sug'urta bozori bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarining 74,6 foizi poytaxtga to'g'ri kelgan, respublika hududlarida esa 1-2 foizni tashkil qilgan. Bu raqamlar aholining sug'urtadan xabardorligi, sug'urta madaniyati etarli emasligini, sug'urtaning qamrov darajasi pastligini yaqqol ko'rsatib qo'ydi va bunga munosib echim topish zarurati tug'ildi. Sug'urta tizimi rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Yevropa mamlakatlarida va qo'shni Rossiyada sug'urtani ommalashtirish maqsadida yo'lga qo'yilgan referal-link tizimi natijasida yuqori samaradorlikka erishildi. Sug'urta mahsulotlarini sotishda mijozlarga manfaat keltiruvchi referal-link yoki "do'stingni jalb qil" tizimining mexanizmi shundan iboratki, sug'urta kompaniyalari o'z mijozlariga maxsus link taqdim etadi, bu link kompaniya mijoziga potensial mijozlarni jalb qilish va har bir jalb qilingan mijoz uchun u to'lagan sug'urta mukofotidan 1 foizdan 10 foizgacha bonus olish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu tizim mexanizmi quyidagicha: sug'urta kompaniyasida sug'urtalangan A mijoz jalb qilinayotgan B mijozga maxsus linkni beradi va B mijoz shu link orqali sug'urta kompaniyasining saytiga o'tib, tegishli sug'urta mahsulotini sotib oladi. Mahsulot uchun to'lov amalga oshirilgandan so'ng, A mijozga yangi mijoz taklif qilgani uchun belgilangan miqdorda bonus taqdim etiladi. Bonuslar qisqa muddatlarda taqdim etilgani sababli mijozlarda o'z yaqinlariga targ'ibot o'tkazish va qiziqtirish orqali ko'p sonli mijozlarni taklif qilishga qiziqish paydo bo'ladi. Albatta bu tizimning to'laqonli ishlashi sug'urta tizimining barcha bosqichlari raqamlashtirilishini talab etadi. Milliy sug'urta bozorida hozirga qadar faqat majburiy sug'urta turlari elektron tarzda amalga oshirilayotgani bois faqat majburiy sug'urta doirasidagina referal-link tizimi amal qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5265-son Qarori[5] ga asosan 2023-yildan boshlab barcha sug'urta turlari bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkazilishi belgilangan, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashib borishi bilan referal-link tizimi ham sohaning barcha yo'nalishlariga tatbiq etiladi.

2. Sohaning salohiyatini mustahkamlash maqsadida nazorat tizimini maqbullashtirish, sohani nazorat qiluvchi organni alohida tashkil etish, qonunchilik palatasiga soha mutaxassislarini jalb qilish. Sug'urta tizimi rivojlangan davlatlarda sug'urta bozori hukumat tomonidan yaxlit, yagona tizim sifatida tartibga solinadi. Har qanday davlatning sug'urta bozorini tartibga solish tizimida markaziy o'rinni davlat ijro etuvchi hokimiyat organlari maqomiga ega bo'lgan, funksional jihatdan alohida bo'lgan va sug'urta bozorini tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini birlashtirgan sug'urta nazorati organlari egallaydi. Soha rivojlangan mamlakatlarda sohaning nazorat hamda qaror qabul qilish tizimi etarli darajada mustaqillikka ega. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida sug'urta nazoratchilari institutsional jihatdan alohida va to'liq mustaqildir, jumladan, Fransiya (Sug'urta nazorati komissiyasi), Germaniya (Federal sug'urta nazorati organi) va Shvetsiya (sug'urta inspeksiyasi). AQShning barcha shtatlarida sug'urta operatsiyalarini nazorat qilish bo'limlari mavjud. Kanada, Rossiyada bo'lgani kabi O'zbekistonda ham sug'urta bozori Moliya vazirligiga bo'ysunuvchi tuzilmalar tomonidan tartibga solinadi. 2023 yil sentyabrga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida bo'lgan nazorat organining vakolatlari endilikda mustaqil bo'lgan Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga o'tkazildi.

3. Sug'urta sohasida faoliyat samaradorligini ta'minlash maqsadida yagona axborotlashtirilgan bazani shakllantirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sug'urta sohasini raqamlashtirishga oid chora tadbirlariga bag'ishlangan Qarorida 2022-yil 1-iyunga qadar barcha sug'urta polislarini ro'yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (baza)ni joriy etish va barcha sug'urta shartnomalarini shu tizim orqali rasmiylashtirish majburiyati belgilangan edi. Yagona bazani yaratishning asosiy maqsadi sug'urta nazorati organi, sug'urta operatori, tijorat banklari, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi (naf oluvchi)larning o'zaro harakatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunga qadar bu tizim yaratilmadi. Avtomatlashtirilgan yagona bazani yaratish sug'urta bozoriga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

amalda bo'lgan va yangi tuzilgan sug'urta shartnomalarining aylanmasini kuzatish; sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar amalga oshirishi mumkin bo'lgan firibgarliklarning oldini olish; majburiy sug'urta doirasini nazorat qilish; qo'shaloq sug'urta bo'yicha amalga oshiriladigan sug'urta qoplamalarini va sug'urta da'volarining qondirilishini nazorat qilish va sh.k.

4. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy mustahkamligini ta'minlash maqsadida mamlakatda qayta sug'urtaga ixtisoslashgan kompaniyani tashkil etish hamda chiquvchi qayta sug'urta shartnomasida tant'em to'lovlari to'lanishini joriy qilish. Sug'urta tizimi rivojlangan barcha mamlakatlarda mahalliy bozor kamida bitta qayta sug'urtaga ixtisoslashgan kompaniyaga ega bo'lib, bu orqali mamlakat sug'urta bozorining salohiyati ta'minlanadi. Biroq O'zbekiston sug'urta bozorida bu turdagi tashkilot hana tashkilot etilmadi. Buning oqibatida katta qiymatga ega ob'ektlar xorij sug'urta bozorlariga chiquvchi qayta sug'urta sifatida transfer qilinmoqda. Sug'urta mukofotlarining xorij bozorlariga chiqib ketishi mamlakat iqtisodiyoti uchun katta yo'qotish hisoblanadi, biroq buni amalga oshirmaslikning imkoni yo'q, aks holda sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyati bo'yicha belgilangan me'yorlarga amal qilmagan sanaladi. Ya'ni to'lov qobiliyatini saqlashning eng maqbul usuli qayta sug'urta mexanizmidan foydalanish hisoblanadi. Biroq bu holatda ham mahalliy sug'urtalovchilarning manfaatlariga mos keladigan tartibni joriy etish yo'llari mavjud, jumladan, qayta sug'urta sliplarini tuzishda qayta sug'urtalovchining sof foydasidan qayta sug'urtalanuvchiga tant'em to'lovlari to'lanishi tartibini kiritish mumkin.

Tant'em to'lovlari qayta sug'urtalovchining qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishidan olgan foydasidan sedentga to'lanadigan haqni ifodalaydi. Qayta sug'urtalash operatsiyalarining ustama xarajatlari sug'urta operatsiyalari xarajatlardan sezilarli darajada past bo'lganligi uchun sedent qayta sug'urtalovchining foydasida ishtirok etish huquqiga ega. Boshqa tomondan, tant'emni to'lash orqali qayta sug'urtalovchi sedentni foydali shartnomalarni taklif etganligi, risklarni ehtiyotkorlik bilan tanlaganligi uchun rag'batlantiradi. Tant'em to'lovlari har yili qayta sug'urtalovchining sof foydasi hisobidan belgilangan foiz yoki maxsus shkala bo'yicha to'lab boriladi va uning miqdori sof

foydaning oshishi bilan o'zgarib boradi. Tant'em to'lovi miqdori qayta sug'urta mukofotining 10-30 foizigacha oralig'ida o'zgarishi mumkin.

5. Sug'urtaning qamrovini oshirish maqsadida sug'urta polislarini sotish tizimini gibridd shaklda tashkil qilish. Aholining barcha qatlamlariga ularga mos shart-sharoitlarda va sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida barcha xizmatlarni ikki shaklda, elektron va an'anaviy shakllarda ko'rsatish mamlakat sug'urta bozori uchun ikki tomonlama manfaatli hisoblanib, sug'urtalovchilar uchun faoliyat tezligini, mintaqaviy bo'linmalar va agentlar uchun yagona axborot manbaini, xarajatlarni minimallashtirishni ta'minlasa, sug'urtalanuvchilar uchun masofadan turib sug'urtalanishni, elektron polisga ega bo'lishni ta'minlaydi. 2023 yil 1 yanvardan boshlab majburiy sug'urtaning barcha turlari elektron shaklda amalga oshirib kelinayotgani hamda ixtiyoriy sug'urta turlarini ham bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi sug'urtaning qamrov kengligini ta'minlaydi.

Rivojlanib borayotgan texnika asrida barcha sohalarida, xususan, sug'urta sohasida ham raqamli platformani joriy qilish va barcha biznes jarayonlarini ilg'or raqamli texnologiyalar asosida yuritish mijozlar talabiga aylangan. Ayniqsa, sug'urta xizmatlari bozorida xizmat turlari, sifati, tartib-qoidalari, shartlari, narxleri bilan tanishish, sug'urta shartnomalarini tuzish, kelishuvlarga erishish va sug'urta polislarini sotib olish, demak, sug'urta munosabatlarining barcha bosqichlarini elektron tarzda taqdim etish mijozlar auditoriyasini kengaytirishning zamonaviy, samarali hamda kam xarajat talab qiladigan usuli hisoblanadi. Hozirga qadar, O'zbekiston sug'urta bozorida faqat majburiy sug'urta turlari elektron shaklga o'tgan bo'lib, ixtiyoriy sug'urta turlarining onlayn sotuvini tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Sug'urta bozorining jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urtalovchilar uchun elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish va barcha sug'urta polislarini ro'yxatga olish tartibini belgilash maqsadida Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan Nizom[6] ishlab chiqilgan bo'lib, uning 1-ilovasida sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirish, sug'urta polislarini ro'yxatga olish, ularning haqiqiylikni tekshirish hamda sug'urta da'volarini ko'rib chiqish sxemasi tasdiqlandi. Mazkur sxemada elektron xizmat ko'rsatish tartibi, ya'ni taqdim etiladigan sug'urta xizmatlari to'g'risida ma'lumot berishdan tortib, sug'urta hodisasining ro'y berganligi to'g'risida ma'lumot berish, da'volarning o'rganilishi hamda sug'urta tovonining to'lab berilishigacha bo'lgan davrni 14 bosqichga ajratilgan holda keltirib o'tilgan. Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 694-son Qaroriga ko'ra, uning amal qilish muddati 2023-yil 7-martdan boshlanishi belgilandi va bugungi kunda asosan majburiy sug'urta turlari doirasida foydalanib kelinmoqda. Elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi barcha sug'urta kompaniyalari hamda potensial sug'urtalanuvchilar uchun yo'riqnoma vazifasini o'taydigan bu tartib sug'urtalovchilarning sug'urta xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirib, ish yuritish xarajatlari kamayishiga olib keladi. Bu tartibda faoliyat yuritish sohani, ayniqsa, sotuv bosqichini vositachilarning aralashuvvisiz amalga oshirish, sug'urta qildiruvchilarning ma'lumotlarini xavfsiz saqlash imkonini beradi.

Mamlakat sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan 35 ta sug'urta kompaniyalari orasida sug'urtaning faqat standart turlarini yuritayotgan sug'urtalovchilar ham yo'q emas. Ammo sug'urta portfelini kengaytirishni, har tomonlama universallashtirishni, shu bilan birga aholiga inklyuziv sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali ommalashish va albatta, buning zahirida moliyaviy barqarorlikka erishishni istagan har qanday sug'urtalovchi o'z faoliyat yo'nalishini qaytadan ko'rib chiqadi va sug'urta klasslaridan chetlashmagan holda unga turdosh va qo'shimcha sug'urta xizmatlarini yaratadi. Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishning yangi,

qulay usullarini qo'llash va bu orqali sug'urta qildiruvchilarga engillik yaratish ham innovatsiya hisoblanadi. Jumladan, bugungi kunda poytaxtda faoliyat yuritadigan deyarli barcha sug'urta kompaniyalarida "eltib berish xizmati" mavjud bo'lib, arziyas bo'lib tuyuladigan shu jihat ham sug'urtalovchilar o'rtasidagi raqobatni ifodalaydi. Eltib berish xizmatiga ko'ra, ariza blankalari, sug'urta shartnomasi, sug'urta polislarini sug'urta qildiruvchiga yetkazish sug'urta kompaniyasining hisobidan amalga oshirilmoqda, bu jihat mijozlarga juda qo'l kelmoqda. Bundan tashqari, sug'urtalanganlik faktini tasdiqlovchi polislarining ID kartalar ko'rinishida berilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, uning qulaylik tomonlari shundaki, kartalar mijozning mobil telefoniga uzviy bog'langan bo'ladi, sug'urtalanganlik faktini tasdiqlaydigan barcha ma'lumotlarni mobil qurilmalarda saqlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish maqsadida ayrim takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamlashtirish va sun'iy intellekt (AI)ni yaratish: AI sug'urta sohasida ma'lumotlarni tez tahlil qilish va tavakkalchilikni aniqlash imkonini beradi va uning yordamida sug'urta kompaniyalari mijozlarga shaxsiy takliflar taqdim eta oladi, talabnomalarni avtomatlashtirish va xatarlarni baholashda samaradorlikni oshiradi. Avtomatlashtirish texnologiyalari esa sug'urta polislarini yaratish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va talabnomalarni qayta ishlash jarayonlarini engillashtiradi. O'z o'rnida sug'urta kompaniyalari uchun vaqtni tejash va ish jarayonlarini optimallashtirish rag'batlantiriladi.

2. Kiber sug'urta va kiberxavfsizlikni joriy qilish: axborot texnologiyalari avj olib borayotgan davrda kiberhujumlar va ma'lumotlar o'g'irlanishi xavfi ortib borayotgani sababli, kibernug'urta mahsulotlariga talab ortib bormoqda. Bu sug'urta turi yuridik va jismoniy shaxslarni kiberhujumlardan himoyalaydi. Sug'urta kompaniyalari o'z ma'lumotlarini himoya qilish va mijozlar ma'lumotlarining maxfiylikni saqlash uchun kiberxavfsizlikni kuchaytirmoqdalar.

3. Blokcheyn: blokcheyn texnologiyasi sug'urta sohasida ma'lumotlarning shaffoqligini ta'minlash, shartnomalarni tezroq va xavfsizroq qayta ishlash uchun joriy qilinmoqda. Blokcheyn sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirish jarayonidagi vositachilar sonini qisqartirishi va firibgarlik xavfini kamaytirishi mumkin.

4. Personalizatsiya va mijozlarga yo'nalganlik: mijozlar talablariga muvofiq individual yondashgan holda sug'urta polislarini yaratish sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi asosiy raqobat omiliga aylanmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili muhim rol o'ynaydi. Mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash va ularning ehtiyojlariga muvofiq faoliyat yuritish sug'urta kompaniyalari uchun muhim vazifa bo'lib, raqamli platforma va mobil ilovalar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatishning samaradorligi ancha yuqori bo'ladi.

5. Barqaror rivojlanish va yashil sug'urta: barqaror rivojlanishga yordam beruvchi sug'urta mahsulotlari, masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash yoki ekologik xavflarni kamaytirishga yordam beradigan sug'urta turlari ommalashishiga erishiladi. Yashil sug'urta mahsulotlarini joriy qilish esa tabiatga zarar yetkazish xavflarini kamaytiradi va eko-loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Maqolada tahlil qilingan tendensiyalar va bayon qilingan yo'nalishlar sohadagi ish jarayonlarini optimallashtirish va yangi bozor talablariga javob berish imkoniyatini yaratadi hamda O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Mavrulova N.A. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyatlarini oshirish. // "Moliya" ilmiy jurnali. – Toshkent, 2021. 5-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2024 yil 1 mart. <https://lex.uz/docs/6824178>
4. <http://www.napp.uz> – O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2021 yil 23 oktyabr. <https://lex.uz/docs/5692504>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 694-son "Elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. 2022 yil 5 dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/6306128>
7. Кудинов М.В. С.М. «Тенденции рынка страховых услуг». Вестник Томского государственного университета. Экономика, 2022. 34 (4).
8. Касабиев А.С. «Страховой рынок как элемент системы страхования». Научно-аналитический журнал "Экономика: временные ряды и эконометрика", 2020. 2(8).
9. Shennaev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2021. - 336 b.
10. Azimov R.S. "Совершенствование методологии страхования рисков в условиях модернизации экономики". Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2022. - 311 b.